



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 09 | pp. 178-183 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

HUDUDLARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA HAR BIR HUDUDNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI



Qodirov Farrux Ergash o'g'li

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

“Informatika va uni o'qitish metodikasi” kafedrası mudiri i.f.f.d PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada asosan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda har bir hududning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan bo'lib bunda iqtisodiy sohani rivojlantirish orqali aholini oziq-ovqat va no-oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish ko'rsatib o'tilgan. Hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni ekonometrik modellashtirish modellashtirish asosida tahlil qilish uchun taklif va xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. Iqtisodiy soha, ijtimoiy soha, raqamli iqtisodiyot, transformatsiyalash, mahsulot ishlab chiqarish, oziq-ovqat mahsulotlari, moliyaviy-statistik baholash, ekonometrik modellashtirish, empirik modellashtirish, ehtiyoj, talab.

Аннотация. В данной статье в основном проанализированы особенности каждого региона в социально-экономическом развитии регионов, показаны пути удовлетворения потребностей населения в продовольственных и непродовольственных товарах за счет развития экономического сектора. Разработаны предложения и выводы для анализа социально-экономического развития регионов на основе эконометрического моделирования.

Ключевые слова. Экономическое поле, социальное поле, цифровая экономика, трансформация, производство продукции, продукты питания, финансово-статистическая оценка, эконометрическое моделирование, эмпирическое моделирование, потребность, спрос.

Abstract. This article mainly analyzes the specific characteristics of each region in the socio-economic development of regions, and it shows how to satisfy the population's needs for food and non-food products through the development of the economic sector. Proposals and conclusions have been developed for the analysis of socio-economic development in the regions based on econometric modeling.

Keywords. Economic field, social field, digital economy, transformation, product production, food products, financial-statistical assessment, econometric modeling, empirical modeling, need, demand.

Kirish.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda har bir hududning o'ziga xos xususiyatlari va imkoniyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatning turli hududlari tabiiy resurslar, geografik joylashuv, iqlim sharoitlari, iqtisodiy faoliyat turlari va

demografik holatlariga ko'ra farqlanadi. Shu sababli, har bir hududning rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda uning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish zarur. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayoni hududning mavjud resurslarini samarali foydalanish, yangi ish o'rinlari yaratish, infratuzilmani yaxshilash va aholi turmush darajasini oshirishni o'z ichiga oladi. Har bir hududning o'ziga xos xususiyatlarini to'g'ri tahlil qilish orqali bu maqsadlarga erishish uchun eng maqbul yo'llarni aniqlash mumkin. Mazkur tadqiqotda biz hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish jarayonida har bir hududning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilamiz. Shu bilan birga, har bir hududning iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash va ularni rivojlantirish strategiyasiga integratsiya qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqamiz. Bu orqali har bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini maksimal darajada amalga oshirishga qaratilgan tavsiyalar beriladi. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini samarali boshqarish uchun har bir hududning tabiiy, iqtisodiy, demografik va ijtimoiy omillarini chuqur tahlil qilish lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

I.A.Rodionova hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini modellashtirishda geografik yo'nalishdagi ishlab chiqarish resurslari va rivojlanish asoslarini ham hisobga olish kerak deydi.[1]

G.R.Xasayev, V.A.Sibatov hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini modellashtirishda ishlab chiqarishning resurslar holati modelini ishlab chiqdi.[2]

BMT nuqtai nazaridan ham u yoki bu milliy davlatning yutuqlari, mana shu ko'rsatkichlarning nisbiy yaxshilanishi bilan baholanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni, unga ijobiy va salbiy ta'sir qiluvchi omillarni, ham nazariy va ham amaliy jihatdan, har tomonlama va uzoq muddat davomida izchil o'rganish, monitoringini olib borish zarur.

Ko'plab adabiyotlarda davlatning ijtimoiy siyosati orqali uning jamiyatni yashash sharoitidagi iqtisodiy-ijtimoiy faoliyatini tartibga solishga mo'ljallangan yo'nalishi ifodalanadi. Bundan farqli o'laroq, S.P.Gurko «davlatning ijtimoiy siyosati - bu davlatning, boshqa iqtisodiy subyektlarining hayot tarzi va mehnatga yaxshi sharoitlarni yaratishga qaratilgan faoliyatidir. Mazkur faoliyatni muvofiqlashtiruvchi asosiy subyekt-bu davlatdir», deb ta'kidlaydi.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan Sh.A.Mirzayev esa o'z tadqiqotida jumladan ijtimoiy siyosatga quyidagicha ta'rif bergan, "keng ma'noda ijtimoiy siyosat bu davlatning va bozor tuzulmalarining jamiyatdagi ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashdagi chora-tadbirlari majmuidir",-deb to'liq ta'rif bergan. Chunki ijtimoiy siyosatni amalga oshirishdan asosiy maqsad jamiyatdagi ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashdir.[3]

Bizning fikrimizcha esa ijtimoiy siyosat bu davlatning aholining turmush darajasini oshirish uchun barcha aholi uchun yo'naltirgan kafolatlari bo'lib, kasbiy tayyorgarlik va bandlik, narx va daromadlar siyosati, ijtimoiy xizmatlar, aholini ijtimoiy himoya qilish yo'nalishlari bo'yicha chora-tadbirlari majmuidan iborat. Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda uning yo'nalishlari bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni aniqlash muhimdir. Biz ijtimoiy siyosatning bandlik va kadrlar siyosatini, narx va daromadlar siyosatini, ijtimoiy soha va ijtimoiy xizmatlarni, ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy yordam yo'nalishlarini alohida ko'rib chiqdik. Ijtimoiy siyosatda narx va daromadlar siyosati

markaziy o'rinni egallaydi. Bunda asosiy e'tibor aholi daromadlarini indeksatsiyalashga va minimal ish haqi darajasini nazorat qilishga qaratiladi.[5]

"Hudud" tushunchasiga zamonaviy iqtisodiy, geografik va shaharsozlik adabiyotlarida katta e'tibor qaratilmoqda Hudud tushunchasini shakllantirishda ko'p marotaba ishlatiladigan mezonlar quyidagilar hisoblanadi:

- geografik (joylashishi, maydoni o'lchami va aholi soni);
- ishlab chiqarish-funksional (ustunlik qiluvchi faoliyat turlarining o'ziga xos xususiyatlari);
- shaharsozlik (uy-joy, xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish faoliyati binolari qurishning xususiyatlari);
- ijtimoiy (munosabatlar va xatti harakatlar chegaralari).

Bunday mezonlardagi turli-tumanlik bitta ta'rifda hududning mohiyatini to'liq ochib berish imkoniyatini kamaytiradi. Axir hudud bir vaqtning o'zida milliy iqtisodiyotning mahalliy tashkiloti sifatida, joylashtirish tizimi unsuri sifatida, hamda inson hayot faoliyati va ta'minotining barcha jabhalari joylashgan jamiyatning ijtimoiy tashkiloti sifatida ko'rib chiqiladi. Shui boisdan hudud – o'zining tarkibi, funksiyalari, tashqi muhit bilan munosabatlari, tarixi, madaniyati, aholining turmush sharoitlari bilan bir butun ijtimoiy-iqtisodiy tizimdir.[6]

"Mintaqa iqtisodiy tizimi-ma'lum fazoviy o'lchamlarga ega va murakkab mintaqaviy tizim hisoblanadi U mintaqaning iqtisodiy tizimi:

ishlab chiqarish va mehnat salohiyati, ishlab chiqarish kuchlarining samarali joylashuvi, aholining turmush darajasi va sifati, mahalliy boshqaruv organlarining faoliyatini o'z ichiga oladi Mintaqa iqtisodiy tizimi evolyusion jarayonning alohida integral subyekti sifatida o'zining mahsulot ishlab chiqarish, ularni ayirboshlash, taqsimlash va iste'mol qilishdagi talablarini mustaqil ta'minlaydi va o'z rivojlanishini boshqara olish qobiliyatiga ega".[7]

Tadqiqot metodologiyasi.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda har bir hududning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va tahlil qilish jarayoni ko'p qirrali tadqiqot metodologiyasini talab qiladi. Ushbu tadqiqot metodologiyasi quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.

- Har bir hududning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va tahlil qilish;
- Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish omillarini aniqlash;
- Har bir hudud uchun mos rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish;

Ma'lumotlarni yig'ish usullari.

➤ Birlamchi ma'lumotlar yig'ish;

➤ Tadqiqot hududlarida so'rovnomalar, intervyular va fokus-guruhlar o'tkazish orqali birlamchi ma'lumotlar yig'iladi. Bu ma'lumotlar hududiy muammolar va imkoniyatlarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi;

➤ Ikkinchi darajali ma'lumotlar yig'ish: Davlat statistika qo'mitalari, mahalliy hokimiyatlar, iqtisodiy va ijtimoiy tadqiqot markazlari tomonidan e'lon qilingan statistik ma'lumotlar, ilmiy maqolalar va boshqa nashrlar tahlil qilinadi;

Ma'lumotlarni tahlil qilish usullari.

- Deskriptiv tahlil: Hududlarning demografik, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ko'rsatkichlarini tavsiflash va taqqoslash uchun deskriptiv statistika usullari qo'llaniladi;
- Korelyatsion va regresion tahlil: Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ular o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish uchun korelyatsion va regresion tahlillar o'tkaziladi;
- SWOT tahlil: Har bir hududning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlarini aniqlash uchun SWOT tahlil usuli qo'llaniladi;
- Karta tahlillari: Hududlarning geografik va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarini vizual ravishda ifodalash uchun GIS (Geographic Information System) texnologiyalari qo'llaniladi;[8]

Tadqiqot natijalarini taqdim etish.

- Hisobot: Tadqiqot natijalari batafsil hisobot shaklida taqdim etiladi. Hisobotda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy holati, rivojlanish omillari va takliflar keltiriladi;

Tahlillar va asosiy natijalar.

Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatini o'rganish ko'p bosqichdan iborat bo'ladi. Demografik jarayonlarni o'rganish hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur'atlari aholining o'sish sur'atiga mos kelishi yoki kelmasligini, uning mehnatga layoqatli qismining iqtisodiyot tarmoqlarida samarali bandligini bilish uchun ham muhimdir.

Demografik jarayonlarni o'rganish hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur'atlari aholining o'sish sur'atiga mos kelishi yoki kelmasligini, uning mehnatga layoqatli qismining iqtisodiyot tarmoqlarida samarali bandligini bilish uchun ham muhimdir.

Demografik jarayonni kuzatish obyekti bo'lib, turli xil yig'indilar: butun aholi, aholining alohida guruhlari, mehnat resurslari va hokazolar bo'lishi mumkin. Shu holatlarni hisobga olib, v -guruhdagi aholining t -vaqtdagi umumiy sonini quyidagicha belgilaymiz.

$$A_t = \sum_{v=1}^n A_t^v \quad (1)$$

Bu yerda: A_t – jami aholi soni t -yilda;

Tadqiqotda aholini hududiy jihatdan o'rganish maqsadida demografik holati va mehnat resurslarini ikkiga bo'lib o'rgandik. Birinchisi, aholi soni, oilalar tarkibi va aholining o'sish darajasi prognozi. Ikkinchisi, aholining intellektual salohiyatini o'rganish va prognoz qilish uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanamiz. Aholi turmush darajasini hududiy rivojlantirish jarayonlari uchta bosqichda oila, tuman va viloyat miqyosida olib boriladi. Shu nuqtai nazardan demografik jarayonlarni prognoz qilishda viloyat aholisining umumiy soni, aholining yosh va jins guruhlari bo'yicha, qishloq va shahar aholisi turlariga bo'lib, prognoz qilamiz.[8] Aholini yoshi bo'yicha hisobga olish, uni o'rganish ko'p tadbirlarni, jumladan:

- bolalar bog'chasi va maktablar qurilishini rejalashtirish, darsliklarni chop etish;
- bolalar nafaqalarini belgilash;
- iste'mol buyumlarini ularning assortimentlari bo'yicha ishlab chiqarish;
- mamlakatdagi mehnat resurslari sonini aniqlash;

- nafaqaxo'rlar sonini aniqlash va shunga o'xshash ko'rsatkichlarni hisoblash uchun zarurdir.

Aholining o'sishini tartibga solish uchun, eng avvalo aholining demografik ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. Chunki aholining demografik ko'rsatkichi aholi turmush darajasining ijtimoiy tushunchasi bevosita aholi, uning turmush tarzi va darajasi hamda intellektual salohiyati bilan bog'langan. Shu nuqtai nazardan ijtimoiy salohiyat deganda aholi soni, tarkibi, dinamikasi va uning intellektual iqtidori tushuniladi. Inson, oila va mehnat resurslarisiz hech qanday rivojlanish bo'lmaydi. Iqtisodiyotning, o'zi odamlar bilan birga yuzaga kelib, ularning ta'siri ostida rivojlanib kelgan.[9]

Aholi ham son, ham sifat jihatdan o'zgarishdan bir nuqtada turaveradigan, tarixiy taraqqiyotga befarq qaraydigan muayyan narsa emas. U ishlab chiqarish usuli, iqtisodiy tizim sharoitiga muvofiq ravishda o'zgarib boradi va o'z navbatida iqtisodiy taraqqiyotga ta'sir ko'rsatadi. Demografik vaziyatni ifodalovchi aholining ijtimoiy tarkibi, uning o'sish sur'atiga ta'sir etadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni rivojlantirish jarayonlari bir-biri bilan uzviy ravishda bog'langanligini qaraydigan bo'lsak, ular o'rtasida muayyan aloqadorlik mavjud bo'lib, birining rivojlanishi, albatta, ikkinchisining ham o'zgarishiga omil bo'ladi, ya'ni xo'jalik yurituvchi subektlarning rivojlanishi aholi turmush darajasi oshishiga olib keladi. Aholi turmush sharoiti, uning faoliyatini rivojlantirish, xo'jalik yurituvchi subektlarning rivojlanishiga bog'liq. Bu sohalarining rivojlanishi aholi daromadiga, yalpi hududiy mahsulot hajmi oshishiga bog'liq, o'z navbatida, ichki mahsulot hajmini oshirish ishlab chiqarish jarayoniga bog'liq. Mana shu o'zaro bog'liqliklarning birortasiga putur yetsa, ishlab chiqarish jarayoni ham buziladi. Bu esa mehnat unumdorligi pasayishiga, moddiy manfaatdorlik so'nishiga, natijada aholi turmush sharoiti pasayishiga olib keladi. Shuning uchun ham xo'jalik yurituvchi subektlarni o'rganishda belgi(omil)lar o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta'sir etuvchi omillarga bir xil emas, balki har xil qiymatlar mos kelishini, ularning o'zaro bog'liqligi korrelyatsion bog'lanishini o'rganish maqsadga muvofiq. Chunki Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning xarakterli xususiyati shundan iboratki, bu sohaga ta'sir qiluvchi barcha omillarning to'liq ro'yxatini (kuchini) aniqlash mumkin emas.

Bundan tashqari, formula yordamida bog'lanishlarning faqat taxminiy ifodalarini yozish mumkin, xolos. Chunki Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta'sir etuvchi omillar soni juda ko'p bo'lib, ularning to'liq ro'yxatini aniqlash va ta'sir etuvchi natijaviy belgi bilan bog'lanishini to'la ifodalaydigan tenglamani yozish mumkin emas.

Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni rivojlantirish shunday to'liqsiz bog'lanishki, unda omillarning har bir qiymatiga turli zamon va makonda ta'sir etuvchi omil natijalarining har xil qiymatlari mos keladi. Demak, ta'sir etuvchi omillarning to'liq soni noma'lum bo'ladi. Bunday bog'liqlikni korrelyatsion bog'lanishlar orqali o'rganish maqsadga muvofiq keladi.

Xulosa va takliflar.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda har bir hududning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni

ko'rsatadiki, har bir hududning rivojlanish salohiyati, muammolari va imkoniyatlari bir-biridan farq qiladi. Bu esa hududlararo tafovutlarni kamaytirish va har bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash uchun alohida yondashuvlarni talab qiladi.

Hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish, har bir hudud uchun alohida rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur. Bu strategiyalar hududlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tayyorlanishi kerak.

Demografik siyosatni takomillashtirish: Aholi soni va tarkibini hisobga olgan holda, demografik siyosatni rivojlantirish, migratsiya jarayonlarini boshqarish va yoshlarni qo'llab-quvvatlash choralari ko'rilishi lozim.

Investitsiya muhitini yaxshilash: Hududlarda investitsiya muhitini yaxshilash uchun qulay sharoitlar yaratish, sarmoyadorlarni jalb qilish va mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirish choralari ko'rilishi kerak.

Infratuzilmani rivojlantirish: Transport, aloqa va energetika infratuzilmasini rivojlantirish uchun davlat va xususiy sektor o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, yangi loyihalarni amalga oshirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Родионова И.А. Региональная экономика. М.: Экзамен, 2003. -С.6.
2. Хасаев Г.Р, Цыбатов.В.А. Технология прогнозирования регионального развития: О теоретические основы государственного регулирования экономического развития регионов” Вопросы экономики. –Москва: 2000.С-47.
3. Мирзаев Ш.А. «Пути усиления адресности социальной защиты населения в условиях переходной экономики» (на материалах Узбекистана) // автореферат дис., Ташкент-2006,с. 8.
4. F.E.Qodirov. Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ekonometrik tahlili. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. ISSN 2091-573X 2024-5/2. 74-78 betlar
5. F.E.Qodirov. Hududning ijtimoiy-iqtisodiy holatini vaziyatli tahlil qilish hamda prognoz qilish sxemasi. Agro ilm ilmiy-amaliy jurnali № 3-son [100], 2024, ISSN 2091-5616. 107-109 betlar.
6. F.E.Qodirov. Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ekonometrik modellashtirish metodologiyasi. Kesh ziyosi nomli ilmiy-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnali 1-soni. 2024/1. 73-86 betlar.
7. F.E.Qodirov. Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi tafovutlarni kamaytirish – hududlararo iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish. Agro ilm Maxsus soni ilmiy-amaliy jurnali № 4-son [102], 2024, ISSN 2091-5616. 110-111 betlar.
8. Абдуллаев И С. Минтақавий иқтисодий тизимни оптимал тартибга солишнинг механизмларини такомиллаштириш. Иқт.фан.бўйича док. (DSc) диссертацияси автореферати.Тошкент, 0,66 б
9. Беркинов Б., Джураев Т., Мухитдинов Х.С. Моделирование механизма индексации доходов населения. //Вопросы моделирования и информатизации экономики. -Ташкент: НПО “Кибернетика” АН Руз, 1995. -вып. 6. -С. 3-14.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

